

TIBBIYOT SOHASIDA, TEZ TIBBIY YORDAM BO'LIMINI RAQAMLASHTIRISH

Matchanov Jamshidbek

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI TALABASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8313568>

Annotatsiya: XXI asr shubhasiz internet asri hisoblanadi, bugungi kunda internet va raqamli qurilmalar hayotimizning bir qismi hisoblanadi.

Ushbu maqolada raqamli qurilmalar va tarmoq yordamida qariyalar va imkoniyati cheklangan kishilar sog'ligini nazorat qilish va ularga kerakli paytlarda zarur tibbiy yordam berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sanoat 4.0, gatjet, internet, raqamli qurilma, tibbiyot, IT, tez yordam.

Tibbiyot. Inson hayotidagi eng muhim va eng kerakli sohalardan biri. Bu soha inson salomatligini asrash yo'lida xizmat qiladi. Bugungi kunda kunda raqamli iqtisodiyot, sanoat 4.0 ortidan inson hayotidagi deyarli barcha sohalar avtomatlashtirildi va buning natijasida iqtisodiyot sezilarli darajada o'sdi.

Xususan tibbiyot sohasiga raqamli texnologiyalar kirib kelishi ortidan juda katta yengilliklar yuzaga keldi.

Zamonaviy tibbiyot so'nggi o'n yilliklarda ilgari erishib bo'lmaydigan darajaga ko'tarildi. Bugungi sog'liqni saqlash tizimi, bu bir paytlar umidsizlikka tushgan bemorlar hayotini saqlab qolayotgan transplantologiya va travmatologiya, plastik jarrohlik va onkologiya, neyrojarrhlik, oftalmologiya, ginekologiya va boshqa sohalardan iborat yuqori texnologik tarmoqqa aylandi. Tibbiyot muassasalari texnik asbob-uskunalarining sezilarli yaxshilanishi natijasida kasalliklarni dastlabki bosqichidayoq to'g'ri tashxislash va bemor ish qobiliyatini qisqa muddatlarda tiklash imkoniyati paydo bo'ldi.

Muolajalar davomida odatiy endoskopik apparaturalar, mikrojarrohlik va ko'rish qobiliyatining lazer korreksiyasi, organ va to'qimalarni ko'chirib o'tkazish kabilardan foydalanish turli tug'ma va orttirilgan nuqsonlarni tuzatishda oddiy holga aylandi.

Ammo, ayrim muammolar hamon dolzarbligicha qolmoqda.

Birgina tez tibbiy yordam xizmatini oladigan bo'lsak u yerda bir qancha muammolar hamon ochiqligicha qolmoqda. Manzilda adashishlik, yolg'on chaqiruvlar, kechikib borishlar shular jumlasidan.

Yuqoridagi holatlarning bartaraf etish maqsadida. Prezidentimiz tomonidan "Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi qaror qabul qilindi.¹ Bu qaror asosan bugungi kundagi ko'zga ko'ringan muammolarni masalan ikkita tuman tez tibbiy bo'limi faqat o'z tumanidagi chaqiriqqa yetib borishi garchi qo'shni tumandagi bemor bu bolimga yaqin bo'lsada uni qabul qilmasligi va shu kabi bir qancha muammolarni hal etishga qaratilgan.

Bugungu kunda Tez tibbiy yordam chaqiriqlari ustuvorliklari bo'yicha 2 ga ajratiladi: shoshilinch yordam brigadasining bemorga murojaat paytidayoq uning hayoti va sog'lig'i uchun bevosita xavf soladigan jarohatlar va kasalliklar munosabati bilan chaqirilishi shoshilinch bo'lmagan va tezkor chaqiriqlar shoshilinch yordam brigadasining bemorga murojaat paytida uning hayoti va sog'lig'i uchun bevosita xavf tug'dirmaydigan, ammo vaqt o'tishi bilan uning sog'lig'i yomonlashishiga va hayotiga xavf tug'ilishiga olib kelishi mumkin

¹ (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.06.2022-y., 07/22/283/0537-son)

bo'lgan kasalliklar va holatlar munosabati bilan chaqirilishi. Bo'limdagilar bu ma'lumotlarni albatta bevosita bemorning ozidan yoki bemor atrofidagi biri kishidan olishadi va buning oqibatida ham bir necha daqiqalar yo'qotilishi mumkin.

Ammo raqamli texnologiyalar asrida yashayotganimizni hisobga olgan holda bu sohani yanayam avtomatlashtirish mumkin va qachondir shunday ham bo'lar. Buning uchun bizga shu holatga mos muhit va yaxshi IT mutaxassislari kerak bo'ladi.

Bitta dastur ishlab chiqish orqali Tez tibbiy yordam sohasida katta yutuqa erishish mumkin.

Aytaylik jamiyatda muhit shakllandi, deyarli barcha internet nima, raqamli qurilmalar nima, smartfonlar, smart soatlar, fitness bilaguziklar nima va ulardan qanday foydalanish mumkunligi haqida bilishadi. Bunday holatda sohani avtomatlashtirish yanayam oson bo'ladi. Xo'sh buni qanday amalga oshirsa bo'ladi. Bitta tuman miqiyosida oladigan bolsak tumandagi barcha aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazgan holda inson hayotidagi muhim qon bosimi, yurak urishi, qondagi kislorod miqdori va shu kabi boshqa ko'rsatkichlar organiladi. Shakllantirilgan ko'rsatkichlarga har bir insondan kelib chiqib me'yor belgilanadi va bemorning smart soati yoki fitness bilaguzigiga kirgaziladi. Bilaguzik esa bevosita Tez tibbiy yordam bolimidagi dasturga bog'langan bo'ladi.

Qurilmaga kirgazilgan korsatgichlardan birortasida me'yor o'zgarsa qurilma avtomatik tarzda bo'limga bemor haqida barcha ma'lumotni va bemor joylashgan hududni aniq uzatadi va tez tibbiy yordam mashinasi manzilga adashmagan holda darhol yetib borishga erishadi.

Bu holatda telefon orqali ma'lumot olishdagi yo'qotilgan bir necha daqiqalar yutiladi.

Lekin agar bemor og'ir tan jarohati olsa bu qanday ishlaydi dagan savol tug'ilishi mumkin.

Bir ish ortidan undanda yaxshisini qilish mumkin keyinchalik qurilmalar takomillashtirilib harakat datchiklari o'rnatilib buni ham amalga oshirsa bo'ladi.

Deylik bitta inson 3 4 metr balandlikdan yiqilib biror joyi sindi tez tibbiy yordamdagilar buni qanday biladi degan savolga bemordagi qurilma bemor harakatini hisobga oladi ya'ni tabiiy tezlik va yiqilishdagi tezlik farqli bo'lgani va harakatdan keyingi bemordagi ko'rsatkichlarning keskin ozgarishi oqibatida markazga avtomatik chaqiruv yuboradi. Shifokorlar esa bemorning oxirgi harakati vaqtidagi tezlik meyo'rdan oshiq va ko'rsatkichlar keskin o'zgarganligini ko'rgan holda bu bemor tan jarohati olganligini bila olishadi. Soha bu ishlar bilan to'xtab qolmaydi keyinchalik balki inson qo'lga taqiladigan qurilmalar kerak ham bolmas balki butun insonga chip o'rnatish oqibatida unda bo'layotgan deyarli barcha o'zgarishlarni masofadan turib bilish imkoni bo'lar.

XULOSA

Inson hayotidagi barcha sohalar avtomatlashtirildi va yana rivojlantirish zarurligini toboro anglab boryabmiz. Tibbiyotni xususan tez tibbiy yordam sohasini avtomatlashtirish yuqoridagi ishlarni amalga oshirish orqali yanayam ko'proq moddiy va ma'naviy foyda ko'rish mumkin bo'ladi. Bu qilinayotgan barcha ishlar insonlarning turmush darajasini oshirish, ularning salomatliklari haqida qayg'urishga qaratilgan

Inson salomatligi unga berilgan eng katta ne'matlardan biri hisoblanadi. Bu ne'matni asrash esa avvola insonning o'zining so'ngra tibbiyot hodimlarining vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan har bir chaqiriqqa tez tibbiy yordam bo'limidagilar kechikmay yetib borishi zarur. Axir inson hayotida arzimagan soniyalar ham uning umrini belgilab beradi.

References:

1. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.06.2022-y., 07/22/283/0537-son)
2. Klaus Shvab: To'rtinchi sanoat inqilobi.